

KICHIK VA O'RTA GURUHLARDA TABIAT BURCHAGINI TASHKIL ETISH.

Xolboyeva Gulnora Ulashovna.

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD) , v.b.dotsent.

Avazova Jasmina Abdurashidovna

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2- kurs talabasi

Аннотация: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida kichik va o'rta guruhlarda tabiat burchagini tashkil samarali tashkil etish masalalari yoritilgan. Maqolada tabiat burchagining ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati, uni o'tkazish bosqichlari, bolalarda kuzatuvchanlik, tafakkur va nutqni rivojlantirishdagi o'rnini tahlil qilinadi. Tabiat burchagiga qo'yiladigan talablari haqida batafsil yoritiladi.

Калит so'zlar: maktabgacha ta'lim, tabiat burchagi, tabiat, bilish faoliyati, ekologik tarbiya, kuzatuvchanlik.tafakkur.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы эффективной организации уголка природы в младших и средних группах дошкольного образовательного учреждения. Анализируется образовательная и воспитательная значимость уголка природы, этапы его реализации и роль в развитии наблюдательности, мышления и речи у детей. Подробно обсуждаются требования к уголку природы.

Ключевые слова: дошкольное образование, уголок природы, природа, познавательная деятельность, экологическое образование, наблюдение, мышление.

ORGANIZATION OF A NATURE CORNER IN SMALL AND MEDIUM GROUPS.

Kholboyeva Gulnora Ulashovna.

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, (PhD), Acting Associate Professor.

Avazova Jasmina Abdurashidovna

2nd year student of the Preschool Education Department

ANNOTATION: This article examines the effective organization of nature corners in elementary and middle groups of preschool educational institutions. The educational and developmental significance of nature corners, their implementation stages, and their role in developing children's observation skills, thought, and speech are analyzed. The requirements for nature corners are discussed in detail.

Keywords: preschool education, nature corner, nature, cognitive activity, ecological education, observation, thinking.

Tabiat burchagi uchun hayvon va o'simliklarni tanlashga qo'yiladigan talablar. 1. O'simlik yoki hayvon u yoki bu tizimli yoki ekologik gurux uchun xos bo'lish lozim. Bunday holda bolalarni o'simlik va hayvonlarning katta guruxi uchun xarakterli bo'lgan asosiy, o'ziga xos belgilari, yashail sharoiti yoki tarzlari bilan tanishtirish imkoni yaratiladi.

2. Tabiat burchagida yashovchilarni parvarish qilish mehnatning sifati, xarakteri, unga sarflanadigan kuch va vaqtga ko'ra maktabgacha yoshdagi bolalarning qo'lidan keladigan (tarbiyachining ishtiroki va rahbarligi ostida) bo'lishi lozim. Shuning o'chun «beor» o'simliklar va ovqatni tanlamaydigan hayvonlar tanlanadi.

3. Tabiat burchagidagi hayvon va o'simliklar tashqi ko'rinishidan yorqin, jozibador, maktabgacha yoshdagi bolaning hali unchalik barqaror bo'lmagan diqqatini o'ziga jalb qilib tura oladigan bo'lishi kerak.

4. Bir turdagi o'simlik va hayvonlarning bir necha xili mavjud bo'lishi lozim, bolalar kuzatish ob'ektida faqat umumiy belgilarnigina emas, balki individual belgilarni ham ko'ra oladilar, bu bolalarni tirik organizmlarning xilma-xilligi hamda takrorlanmasligini anglashlariga olib keladi.

5. O'simlik va hayvonlar tamoman xavfsiz bo'lishi, bolalarning sog'liqlariga hech qanday zarar yetkazmasligi lozim.

6. O'simlik va hayvonlarning bolalar tashkiloti binosidagi normal hayot faoliyati, o'sishi va rivojlanishida, binoning doimiy temperaturasini, karbonat anhidrid gazining katta konsentratsiyasini, quruqligi, shovqin-suronning mavjudligini hisobga olish lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tabiat burchagini tashkil qilish tartibi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

JOY TANLASH:Guruh xonasining yorug‘, shamollatish mumkin bo‘lgan qismida joylashishi kerak. Bolalar bemalol yaqinlashib ko‘rishlari uchun past balandlikda bo‘lishi lozim. Elektr jihozlari yaqinida bo‘lmasligi kerak

Kuylash, o‘yin zonasi bilan aralashib ketmasligi maqsadga muvofiq

MAQSADNI ANIQLASH

1. Tabiat burchagi quyidagi vazifalarni bajarishi kerak:
2. bolalarda tabiatga qiziqish uyg‘otish
3. kuzatish, parvarish qilish ko‘nikmalarini shakllantirish
4. ekologik tarbiya berish
5. mas’uliyat hissini rivojlantirish

JIHOZLARNI TAYYORLASH

Tabiat burchagida quyidagilar bo‘lishi tavsiya etiladi:

Asosiy jihozlar

- stend yoki stollar
- yorliq va nomlash kartochkalari
- suv quygich, spreyi
- tuproq, qum, drenaj

O‘simliklar

- xonaki gullar (mustahkam, tez so‘nmaydigan)
- tez unib chiqadigan urug‘lar (bug‘doy, loviya, suli)
- faslga mos o‘simlik namunalari

Tabiiy materiallar

- tosh, shoxcha, barg, urug‘, mevdan urug‘
- herbariy

Mini akvarium/terratrium (agar imkon bo‘lsa)

- baliq, suv o‘tlari
- qurt-qumursqa kuzatish shishasi

4. O‘simlik va hayvonlarni to‘g‘ri tanlash

- zaharli va tikonli o‘simliklardan foydalanilmaydi
- allergiya chaqiradigan turlar qo‘yilmaydi
- murakkab parvarish talab qilmaydigan turlar tanlanadi

Qisqa xulosa. Tabiat burchagi – bu shunchaki bezak emas, balki:

Tarbiyaviy rivojlantiruvchi, didaktik, ekologik makon

Kichik guruh tabiat burchagi uchun o'simlik va hayvonlarni tanlashda eng avvalo bolalarning narsalarni idrok etish xususiyatlari shuningdek, ta'limiy masalalar nazarda tutiladi. Kichikintoylar 2—3 xil o'simlikni bilib olishlari va ularning asosiy qismlarini (bargi, poyasi, guli) farqlay olib, nomlarini aytishlari lozim. Kichik guruhdagi bolalar o'simliklarni parvarish qilishga jalb qilinadilar: ular o'simliklarga suv quyadilar (suvni kattalar tayyorlab beradi, qancha quyish lozimligini ham ular ko'rsatishadi), nam latta bilan o'simliklarning barglarini artadilar. Hayvonlarni kuzatar ekanlar, bolalar hayvonlarni tashqi aniq belgilariga: gavda qismlari, harakatlanish xarakteri, chiqaradigan ovozlari va hokazolarga ko'ra tanib olishni, tanasining asosiy qismlarini farqlashni o'rganib oladilar. Tarbiyachi bolalarni kuzatishga, savolni anglashga, diqqatni kuzatilayotgan narsaga qaratib, uncha murakkab bo'lmagan harakatlaridan foydalanishga, kuzatish jarayonida berilgan savollarga javob qaytarishga o'rgatadi.

Kichik yosh guruhlarning tabiat burchagida qushlarni ham saqlash mumkin. Qushning patlari chiroyli, o'zi xushchaqchaq bo'lishi, ovqat tanlamasligi, qafasda ham sayrashi maqsadga muvofiqdir. Kanareyka xuddi shunday qushlardandir. Biroq imkon bo'lsa, sa'va, snegini saqlash lozim. Kichik yosh guruh tabiat burchagida sut emizuvchilarni doimo saqlash mumkin emas.

O'rta yosh guruh tabiat burchagi. O'rta yosh guruhdagi bolalarda narsalarning xususiyat va sifatlarini (shaklining xilmaxilligi, rangi, kattaligi, sathining xarakteri va shu kabilar) ko'ra olish malakasi hosil qilinadi. Bolalar solishtirib ko'rishning murakkabroq usullarini egallaydilar, narsalarning farqi va o'xshashligini aniqlashni, ularni u yoki bu belgilariga ko'ra umumlashtirishni o'rganadilar. O'simlik va hayvonlar haqidagi bilimlar murakkablashadi. Bolalar

o'simliklarning xususiyatlarini aniq farqlashni boshlaydilar, ularning hayotlari uchun zarur bo'lgan sharoitlari bilan tanishadilar. Shu bilan bolalar ko'rganda taniydigan hamda nomlarini biladigan o'simliklar soni ortib boradi.

Besh yoshga qadam qo'ygan bola hayvonlar bilan tanishar ekan, ularning tashqi ko'rinishi, tuzilishi, harakat qilishi, ovqatlanishining o'ziga xosligini va dastlabki bog'liqlik — harakat qilish xarakteri oyoqlarining tuzilishiga bog'liq ekanligini bilib oladi. Jonli tabiat burchagida yashovchilarni parvarish qilish jarayonida bolalar unchalik murakkab bo'lmagan ko'nikmalarni egallaydilar: bular — o'simlikni toza saqlash, uni to'g'ri sug'orish, suvdon va oxur (donxo'rak)larni yuvish, ozuqa berish kabi. Bu yoshdagi bolalar o'simlik va hayvonlarni kuzatar ekanlar, ularning o'sishi va rivojlanishidagi o'zgarishlarni qayd qiladilar, o'z kuzatishlarini to'g'ri gapirib berishni o'rganadilar. O'rta yosh guruhdagi bolalarning jonli tabiat haqidagi dunyoqarashlarini kengaytirish maqsadida tabiat burchagining aholisini to'ldirib, boyitib turish talab qilinadi. Xona o'simliklari turli shakl va hajmdagi barglarga ega bo'lishi lozim, chunki bolalar o'simliklarni ozoda saqlashning o'zlari uchun yangi bo'lgan usullarini egallaydilar, egilgan barglarni mo'yqalam bilan artadilar, gullarga suv purkaydilar. Bunda bolalar parvarish qilish usulini barglarning xarakteriga: kattaligi, miqdori, sathining xarakteri, pishiqligiga ko'ra aniqlashni o'rganadilar. O'rta yosh guruh jonli tabiat burchagida doimiy yashovchilar sifatida sut emizuvchilarni ham saqlash mumkin. Bu yoshdagi bolalar ularni parvarish qilishning oddiy malakalarini bemalol egallay oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika.T.Tafakkur bo'stoni. 2013 y.
- 2.O.U Xasanboyeva, X.J.Djabborova, Z.Nodirova. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi. T.: Cho'lpon. 2007.
- 3.N.Ravshanova.Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik ta'lim-tarbiya. T.Ilm-ziyo. 2006 y
- 4.Kholboyeva G. U. et al. Contents and indicators of preschool preparation of children //youth, science, education: topical issues, achievements and innovations. – 2023. – T. 2. – №. 7. – С. 104-107.

5. Kholboyeva G. U., Umurova L. Requirements for teachers in preschool educational organizations //“trends of modern science and practice”. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – С. 13-19.